

Shakllarni rasmga aylantiramiz



Geometrik shakllar rasmlarda jonlanadi. **Aylana**, **kvadrat** va **uchburchaklar** hayvonlar hamda turli buyumlarga aylanadi.



Bugun siz oddiy geometrik shakllardan foydalanib, rasm chizishni o'rganasiz.



Sizga kerak bo'ladi:

albom varag'i, qalam, o'chirg'ich, bo'yoqlar, mo'yqalamlar va suv.



Rassomlar ko'pincha oddiy shakllardan foydalanishadi. Ulardan deyarli hamma narsani chizish mumkin!


Mushuk chizamiz

1




To'g'ri to'rtburchak chizing. Bu mushukning tanasi bo'ladi.

2




Unga **uchburchaklardan** iborat naqsh qo'shing.

3




Boshi uchun **aylana** chizing. Oyoqchalarini ham qo'shing.

4




Dumi uchun **uchburchak** chizing.

5



Uchburchaklardan yana quloqchalar ham chizing.

6



Rasmni **bo'yang**.

Robot chizamiz

1




Kvadrat chizing. Bu robotning tanasi bo'ladi.

2




Tepasiga **to'g'ri to'rtburchak** qo'shing. Bu boshi bo'ladi.

3




Yon tomonlariga quloqchalar uchun kichkina **kvadratlar** chizing.

4




Uchburchak va **to'g'ri to'rtburchaklar** bilan uning qo'llarini chizing.

5




Oyoqlari uchun **to'g'ri to'rtburchaklar** chizing.

6




Aylanalar bilan kaftlarini chizing.

7



Ko'zlari, og'zi va qalpog'ini chizing.

8



Rasmni bo'yang.

